

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI O‘STIRISH
JARAYONIDA DIDAKTIK MATERIALLARDAN FOYDALANISHNING
NAZARIY ASOSLARI**

Komilova Shahnozabonu Ismoil qizi

Yangi asr nodavlat universiteti Maktab va maktabgacha ta’lim

kafedrasi o‘qituvchisi

kshahnozabonu@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining rivojlantirish jarayonida samarali didaktik materiallardan foydalanishning nazariy asoslari tahlil qilingan. Oilaviy va ta’lim muhitining bolaning nutqiy rivojlanishidagi roli batafsil yoritilgan. Shuningdek, pedagogik ta’sir vositalari, jumladan, muloqot, o‘yin, badiiy adabiyotlardan foydalanish va tarbiyachilarning professional yondashuvlari muhim omillar sifatida ko‘rib chiqilgan.*

Аннотация: *В данной статье анализируются теоретические основы использования эффективных дидактических материалов в процессе развития речи у детей дошкольного возраста. Подробно рассматривается роль семьи и образовательной среды в развитии речи ребенка. Также в качестве важных факторов рассматриваются педагогические инструменты, включая коммуникацию, игры, использование художественной литературы и профессиональный подход педагогов*

Annotation: *This article analyzes the theoretical foundations of the use of effective didactic materials in the process of developing the speech of preschool children. The role of the family and educational environment in the speech development of a child is discussed in detail. Also, pedagogical tools, including communication, games, the use of fiction, and the professional approach of educators are considered as important factors*

Kalit so‘zlar: *Maktabgacha yosh, nutq shakllanishi, ijtimoiy muhit, pedagogik ta’sir, oilaviy muhit, tarbiya, muloqot, bolalar rivojlanishi, ta’lim muassasalari, nutqiy ko‘nikmalar.*

Ключевые слова: *Дошкольный возраст, формирование речи, социальная среда, педагогическое воздействие, семейная среда, воспитание, общение, развитие детей, образовательные учреждения, речевые навыки.*

Key words: *Preschool age, speech development, social environment, pedagogical influence, family environment, upbringing, communication, child development, educational institutions, speech skills.*

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqi —maktabgacha yoshdagi bolalarga tarbiya berish hamda ularning savodxonligini shakllantirish qonuniyatlari, tamoyillari, vositalari, shakl, usul va metodlarini o‘rganuvchi sohasi hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o‘stirish bolaning yosh anatomiyasi va fiziologiyasi, shuningdek, tilshunoslik, aqliy tarbiyasi, axloq fanlari bilan uzviy bog‘liq. Bolalar muassasalarining vujudga kelishi bir tomondan bolaning rivojlanishi va ilmning alohida tarmog‘i sifatida namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan ayollarning fabrika va zavodlarga jalb etilishi natijasi o‘laroq deb

ham izohlanadi. Ingliz utopik sotsialisti R. Ouen birinchi bo‘lib bolalarga ilk yoshdan ijtimoiy tarbiya berish g‘oyasini asoslab berdi va bolalar uchun maktabgacha yoshdagi bolalar muassasasini ochdi. Xuddi shu vaqtdan boshlab maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasi fanning maxsus tarmog‘i sifatida shakllandi va rivojlana boshladi. XX asr boshlarida erkin tarbiya jarayonida bola shaxsiyatini rivojlantirish g‘oyasi keng tarqaldi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o‘stirishning metodologik asosini dialektik bilish nazariyasi hamda shaxsning evolyusion tarzda taraqqiy etish qonuniyatlari, O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘grisida”gi qonuni o‘zbek xalqining ma’naviy-axloqiy merosi hamda bola tarbiyasiga oid tarixiy tajribasi, ilg‘or mamlakatlardagi pedagogik qarashlar, pedagogika, psixologiya, falsafa, etika, estetika, tilshunoslik, tibbiyot, odam fiziologiyasi va gigiyenasi, antropologiya kabi fanlarning ilmiy asoslari, xulosalari hamda qonuniyatlari tashkil qiladi[1].

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutq o‘stirish jarayonida tadqiqotlar kuzatish, tajriba, suhbat, hujjatlarni o‘rganish, bolalar faoliyati mahsulini tashkil qilish metodlari orqali amalga oshiriladi. Bu metodlar asosida tadqiqotlar mazkur soha bilan shug‘ullanuvchi tadqiqotchi va tarbiyachilar tomonidan olib boriladi. Har bir kuzatish jarayoni batafsil yoziladi va ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Nutq o‘stirish tajribasida birinchi navbatda bola, uning rivojlanishi uchun yaratiladigan pedagogik shart-sharoitlar nazarda tutiladi. Tajriba ehtiyotkorlik bilan ob‘yektiv ravishta olib borilgandagina amalga oshiriladigan tadqiqot natijalarining ob‘ektivligini ta’minlash imkoniyati tug‘iladi. Suhbat metodi u yoki bu bolani, yoki bir guruh bolalarni yaxshiroq o‘rganish imkonini yaratadi, nutq o‘stirish jarayonida yo‘l qo‘yilgan xatolar aniqlanadi. Bolalar bilan suhbat ularning qiziqishlarini, nutqidagi o‘ziga xoslikni, atrof muhit hamda kishilarga munosabatini aniqlashga yordam beradi. Hujjatlar, ya’ni bog‘cha va alohida tarbiyachilarning reja va hisobotlarini urganish ham nazariy xulosalar chiqarisha muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga mazkur hujjatlar maktabgacha ta’lim muassasalaridagi tashkiliy ishlar haqida aniq xulosalar chiqarish imkonini yaratadi. Ushbu xulosalar o‘z navbatida tarbiya usullarini kashf etishga yordam beradi. Bolalar faoliyati mahsulini tahlil qilish metodi maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasining muhim tadqiqot metodidir. Bolalar faoliyati taxlili ularni shakllantirishda juda yaxshi natijalar beradi.

“Maktabgacha yoshdagi bolalarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yilgan davlat talablari”, “Ilk qadam” kabi davlat o‘quv dasturlarning yaratilishi diqqatga sazovor. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o‘stirish jarayonida amalga oshirilgan tadqiqotlarning eng muhimi sensor tarbiya tizimi nazariy asoslarining yaratilganligidir. Chunki sensor tarbiyaning asosiy maqsadi bolalar faoliyatining har xil turlarini amalga oshirish jarayonlari uning sensor qobiliyatini taraqqiy ettirishdan iborat. Bolalar tarbiyasida muhim jihat shundan iboratki ularni kuzatish jarayonida tarbiyachi pedagoglar hamda ota - onalardan nazariy bilimlarga ega bo‘lishni talab etadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarning har tomonlama rivojlanishida e’tibor qaratiladigan jihat shuki, bolalarning ilk yoshidan to maktab yoshiga qadar va undan keyin ham ularning nutqiy faoliyatidagi kuzatuvlar maktabgacha yoshdagi bolalarni turli usullar bilan sinab ko‘rish bolalar bog‘chalarida va maktabga kirishdan oldin amalga oshiriladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun test bolalar haqida ko‘pgina foydali

ma'lumotlarga ega bo'lishga yordam beradi, bu esa kelgusida ta'lim jarayonidagi yutuq va kamchiliklarni aniqlashga yordam beradi

Ko'pgina ta'lim muassasalarida sinovlar majburiy holga aylandi. O'quv jarayoni har doim o'zgartiriladi, tuzatishlar kiritiladi, ta'lim rejasi murakkab yoki soddalashtiriladi, maktablar maxsus ta'lim shakllariga o'tadi. Bularning barchasi bolaning urinishlari, moslashuv qobiliyatini talab qiladi. Va ota-onalar har doim ham bolalarini bu masalada malakali yordam ko'rsatishga qodir emaslar, hatto agar ular aniq yordam berishni bilmasalar ham. Buning uchun maktabgacha yoshdagi bolalar uchun testlar mavjud. Maktabgacha yoshdagi bolalarning tashxis qilishda olib boriladigan tadqiqotlar natijasida har bir yoshda bolalarda kuzatiladigan o'zgarishlar ma'lum darajada uning rivojlanishiga ta'sir qiladi. Bolalarga ta'lim – tarbiya berish jarayonida nazariy bilimlar bilan birgalikda amaliy bilimlarni ham uyg'unlashtirgan holda olib borish maqsadga muvofiqdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning diagnostikasi, bolalar bog'chasiga kirish bilan boshlanadigan har xil turdagi va yo'nalishlarning usullaridan biri. Turli xil usullar turli yo'llar bilan ishlaydi, lekin ularning umumiy mulki mavjud. Ularning barchasi ota-onalarga va o'qituvchilarga bolaning his-tuyg'u va ruhiy holatini tushunishlariga yordam beradi, maktab yoki bolalar bog'chasiga tayyorligini, bilim darajasi, aql-zakovati va boshqalar.

Barchamizga ayonki adabiy til muayyan umumxalq tilining qayta ishlangan shaklidir. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng adabiy til rivojiga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi. So'nggi yillarda ayniqsa ta'lim sohasining bosh bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lim tizimiga e'tibor siyosat darajasiga ko'tarildi.

Bilamizki, bog'chaga borgan bola bilan bog'chaga bormagan bolaning fikrlashi, dunyoqarashi, rivojlanishida yer bilan osmoncha farq bo'ladi. Shu bilan birga farzandlarimizni barkamol va yetuk shaxs etib tarbiyalashda o'zbek adabiy tili, xususan, bolalar adabiyotining ahamiyati qanchalik zarurligini unutmashimiz lozim. Til tarixiy taraqqiyotda odamlarning nutq orqali aloqa bog'lashi jarayonida rivojlanib kelgan. Maktabgacha yoshdagi bolaning nutqi tashqi olam bilan o'zaro bog'langan holda quyidagi vazifalarni bajaradi :

1. KommuniKaiv
2. Bilish
3. Tartibga solish

Nutqning kommunikativ vazifasi bolada juda erta paydo bo'ladi. Bolaning ilk aytgan so'zlari kommunikativ vazifani bajaradi. Keyinchalik esa bu so'zlar bolaning atrofidagi kishilar bilan muomala qilish ehtiyoji o'sib borgan sari nutq sifida takomillashib, rivojlanib boradi. Ikki yoshdan boshlab bola o'z hohish istaklarini atrofidagilarga tushunarli ifodalay oladi, o'ziga qaratilgan nutqni, so'zlar ma'nosini tushuna boshlaydi.

Uch yoshdan o'tgach bola ichki nutqni egallay boshlaydi. Bu vaqtga kelib nutq uning uchun muomala vositasi bo'libgina qolmay, balki, bilish vazifasini ham bajara boshlaydi, yangi so'z va so'z shakllarini o'zlashtirib tevarak atrof, predmetlar va hodisalar, ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik haqida tasavvurlarini ham kengaytiradi. Aynan mana shu davrda bolalar uchun mo'ljallangan adabiyot namunalaridan ertak, topishmoq, hikoyalar, tez aytish, she'rlar aytib berish va yodlatish nutqiy rivojlanishini samarali bo'lishga xizmat qiladi. Shuni aytish lozimki, bolaga qaratilgan nutq uning fe'l atvorini tartibga solib turuvchi vosita

hisoblanadi. Biz nutq orqali mulohaza yuritimiz. Tafakkur hamisha nutq vositasida ifodalanadi. Nutq va tafakkur o‘zaro bog‘liq tushunchalardir. Shu bois ham fikrning realligi nutqda namoyon bo‘ladi. Tafakkur jarayonlarida nutq-hukm, xulosa va tushuncha shakllarida namoyon bo‘ladi.

MTTlarda maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarga ta‘lim va tarbiya berish asosiy vazifalardan biri bolalarda ona tilimiz va adabiyotini o‘rgatish, nutqiy rivojlanish, muomalaga o‘rgatishdir, nutq tug‘ma qobiliyat emas balki u hayot davomida bolalarning jismoniy va aqliy rivojlanishi bilan birga parallel ravishda shakllanib boradi. Bolaning nutqi kattalarning, atrofdagilarning nutqi asosida shakllanib boradi. Shuning uchun maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida og‘zaki adabiy tilni rivojlantirishimiz, bolalar bilan ko‘proq sof adabiy tilimizda gaplashishimiz kerak. MTT bolalarni har tomonlama tarbiyalashdek mas‘uliyatli vazifani o‘z zimmasiga olgan. Bu esa bolalarga ona tilimizni o‘rgatish asosida amalga oshiriladi. Bog‘chada og‘zaki nutqni o‘stirish asosida bolalar aqlan rivojlanib umumiy madaniy saviyasi o‘sadi. Bolalarda nutqning rivojlanishi ularning ruhiy jihatdan ruhiy jihatdan ham takomillashib borishiga xizmat qiladi.

Bola nutqini rivojlantirish, eng avvalo, til qobiliyatini shakllantirishni talab qiluvchi muloqot shakllarini rivojlantiruvchi omil demakdir (A.A.Leontev).

Ilmiy tadqiqotlar va yo‘nalishlar tahlili maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining rivojlantirish xususiyatlari hamda ularning ilmiy adabiyotda o‘rganilganlik darajasini aniqlash imkonini beradi[3;45-b]. Inson tajribasining tarixan shakllangan mazmuni so‘zli shaklda umumlashtirilgan, uni bayon eta olish va o‘zlashtirish esa ushbu jarayonda nutqning ham ishtirok etishini nazarda tutadi. Nutq bolaga inson madaniyatining barcha yutuqlariga yo‘l ochadi. Umuman, shaxsning va barcha asosiy psixik jarayonlar (qabul qilish, fikrlash tafakkur va boshq.) ning shakllanishi ham bolada nutqning rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Bolaning psixik jihatdan shakllanishida nutqning alohida o‘rin tutishi uning turli yosh bosqichlarida rivojlanishiga yordam beruvchi shart-sharoitlar va omillarni bilishimizni ham juda muhim qilib qo‘yadi. Bolalarda nutqiy rivojlanishini rag‘batlantiruvchi yoki unga to‘sqinlik qiluvchi kuchlarni aniqlash ushbu jarayonga aniq maqsadni ko‘zlagan holda pedagogik ta‘sir ko‘rsatishni tashkil etish kalitidir. V.I.Loginova, Y.S.Lyaxovskaya, V.V.Gerbova, Ye.M.Strunina va boshqalarning tadqiqotlarida bolalar ona tili leksikasini o‘zlashtirib olishlarining o‘ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘z ona tillarini o‘zlashtirishlarida ikki jihat ajratib ko‘rsatilgan: atrofdagi olam lug‘atini (so‘z boyligini) anglash bilan birgalikda rivojlantirish; lug‘atni til birligi sifatida o‘zlashtirish[5;84-b]. Nutqni egallab olishning eng muhim bosqichlari maktabgacha yoshga to‘g‘ri keladi. Shundan kelib chiqqan holda, hozirgi kunda bog‘cha yoshdagi bolalarning nutqiy savodxonligini oshirishning turli samarali yo‘llari ishlab chiqilmoqda. Yuqoridagi fikrning isbot sifatida S.O.G‘oziyeva tomonidan (E.M.Razbayevaning ilmiy rahbarligi ostida) maktabgacha kata yoshdagi bolalarda o‘zbek xalq og‘zaki ijodidan (xalq ertaklari, o‘yinlar) foydalanish asosida atrofdagilarga adolatli munosabatda bo‘lishni shakllantirish masalalarini tadqiq qilganligini ko‘rsatishimiz mumkin[3;56-b].

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ravon nutqi tadqiqotchilari bo‘lgan rus olimlari Ye.I.Tixeyeva, Ye.A.Flerina, A.M.Leushina, L.A.Penyevskaya va boshqalar bolalarning



ogʻzaki nutqi va hikoya qilishni oʻzlashtirishining oʻziga xos xususiyatlari, dialogik va monologic nutqning oʻzaro bogʻliqligini chuqur tushunish asosiga quriladigan ravon nutqli oʻqitish tizimiga asos solishgan[4;120 -b]. Albatta, bunday tizim asosida nutq oʻstirish kutilgan natijaga olib keladi Chunki, bolalarga adabiy asarlar, hikoya, sheʼrlar va ertaklar qiziq va oʻrganishga tayyor asosiy materiallar boʻlib xizmat qiladi.

Xuddi shunday, tadqiqotchilar tomonidan bolalar hikoyalari tasniflab chiqilgan boʻlib, uning asosini fikr bildirish manbasi: predmetlarni tavsiflash, adabiy matnlarni hikoya qilib berish, suratga qarab hikoya qilish, shaxsiy va jamoa tajribasidan misol keltirish, ijodiy hikoya qilishlar bola nutqiy va aqliy rivojlanish jarayonini shakllantirish negizi hisoblanadi.

Bolalar nutqining grammatik tuzilishi sohasidagi tadqiqotlar bolalarda nutqning morfologik va sintaktik tomonlarini shakllantirish boʻyicha, M. Kadirova ona tilining soʻz hosil qilish tizimi xususiyatlarini aniqlash, shuningdek, bolalar nutqining grammatik tuzilishini takomillashtirishga oid pedagogik ishda nafaqat odatdagi grammatik xatoliklarni oʻrganish va tuzatishga, balki, birinchi navbatda grammatik umumlashmalarni shakllantirishga eʼtiborni qaratish zarurligini isbotlashdi[5;34-b].

Maktabgacha yosh davrida bolalarda muloqotning yangi motivlari yuzaga keladi. Bu shaxsiy va ishbilarmonlik motivlari hisoblanadi. Maktabgacha yosh davrida bolalar uchun kattalar tomonidan berilgan baho muhimdir. Katta yoshdagi bolalar koʻp hollarda oʻz xatti harakatlari sababini tushuntirib bera oladilar. 3-3.5 yosh oraligʻida oʻzlarining muvaffaqiyat va magʻlubiyatlariga oʻz munosabatlarini bildirishadi va bu munosabat, koʻpincha, ularning oʻzlariga berilgan baholari asosida boʻladi. 4 yosh bolalar esa oʻz imkoniyatlarini real baholay olishadi. Lekin 4-5 yoshli bolalar hali shaxsiy xususiyatlarini idrok etishga va baholashga qodir boʻlishmaydi, shuningdek, oʻzlari haqida maʼlum bir xulosani ham bera olmaydi.

Taʼlim nazariyasi uning nazariy jihatlari, taʼlim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, tarbiyachi va tarbiyalanuvchi faoliyati, taʼlim maqsadi, mazmuni, shakl, metod, vositalari, natijasi, taʼlim jarayonini takomillashtirish yoʻllari va hokazo muammolarni tatbiq etadi.

Taʼlim, shuningdek, turli darajadagi dasturlarni amalga oshirishiga koʻra maktabgacha taʼlim, oʻrta taʼlim, oʻrta maxsus, kasb hunar taʼlimi, oliy taʼlim, oliy oʻquv yurtidan keyin taʼlim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash hamda maktabdan tashqari taʼlim kabi turlarga boʻlinadi.

Tarbiya nazariyasi-pedagogikaning muhim tarkibiy qismlaridan biri boʻlib, tarbiya jarayonining mazmuni, shakli, metod, vosita va usullari, uni tashkil etish muammolarini oʻrganadi. Tarbiya muayyan aniq maqsad hamda ijtimoiy tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama rivojlantirish, uning ongi, xulq atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayonidir.

Umuman, pedagogika, xususan, maktabgacha pedagogika fani shaxsni rivojlantirishning ikki muhim jihati - uni oʻqitish va tarbiyalashga asosiy eʼtiborni qaratganligi bois taʼlim nazariyasi va tarbiya nazariyasi uning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'grisida"gi qonuni. 2020 yil 23 sentyabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-sonli “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi qarori.
3. Nazarova Z.M. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida nutqning o‘rni. Toshkent: Ilm Ziyo, 2021.
4. G‘ozibekova D. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish metodikasi. Toshkent: O‘qituvchi, 2015.
5. Ушакова О.С. Развитие речи детей 5-7 лет /О.С. Ушакова.-М.: ТЦ Сфера, 2017. -272 с.